



## JALOLIDDIN SUYUTIYNING “AL-ITQON FI ULUM AL-QUR’ON” ASARINING TAVSIFI

Abdujabborova Zahrobonu Jaloldin qizi

O‘zbekiston xalqarom akademiyasi

Islomshunoslik yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Hafsaabduzabborova@gmail.com Telefon raqami: +998901191441

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7567321>

### ARTICLE INFO

Received: 14<sup>th</sup> January 2023

Accepted: 24<sup>th</sup> January 2023

Online: 25<sup>th</sup> January 2023

### KEY WORDS

*Qur’on ilmlari, Qur’oni karim roviylari, nozil bo’lish sabablari, yetti harf, qiroat ilmi.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada Jaloliddin Suyutiyning “Al-Itqon fi ulum al-Qur’on” asarining yozilish tarixi, unga sabab bo’lgan tamoyillar bilan bir qatorda asarning batafsil tavsifi hamda uning tarkibiy qismi yoritilgandir. Qur’on sohasida yozilgan jamlovchi asar hisoblangan ushbu kitob zamonamizga qadar o‘z ahamiyatini yo‘qotmagani bilan ajralib turadi. Asarda nafaqat Qur’onga doir sohalar, balki arab tili grammatikasi hamda fonetikasi batafsil yoritib berilgan.*

Islom dinining asosiy manbasi sanalgan Qur’oni karim o‘zida turli sohaga doir masalalarni mujassam qilgan manba hisoblanadi. Qur’onda islom ta’limoti, ibodat qoidalari, ijtimoiy qoidalar, huquqshunoslik, odob-axloq qoidalari, tarixiy voqealar o‘z aksini topgan. Biroq ularning barchasi aralash holda nozil bo’lgan. Zamonlar o‘tgan sari jamiyatda keyinchalik mustaqil soha sifatida shakllangan aqida, fiqh va tafsir kabi ilmlar. Ularning orasida kalom va fiqh kabi alohida ilmlar bilan bir qatorda Qur’on karim bilan bevosita bog‘liq bo’lgan “Tafsir”, “Asbob al-nuzul” (Qur’on oyatlarining nozil bo’lish sabablari), “Nosix va mansux” (hukmni bekor qiluvchi va hukmi bekor bo’lgan oyatlar), “Muhkam va mutashobih” (ma’nosi ommaga ma’lum hamda ma’nosi yolg‘iz Allohga ayon bo’lgan oyatlar), “Yetti harf”, “Qiroat ilmi” kabi ilmlar shakllana boshladi.

Qur’oni karim arab tilida nozil bo’lgani uchun arab tili grammatikasi, ya’ni “Nahv”(sintaksis), “Sarf”(morfologiya), “Balog‘at ilmi”, “Ishtiyoq” (so‘z o‘zagini aniqlash) ilmlari ham rivojlandi. Ushbu sohalar Qur’on karim oyatlari mazmun mohiyatini yanada mukammal tushunish bilan birgalikda talqin etishda ham zaruriy hisoblanadi.

Qur’on karim tafsir, islom huquqi, kalom kabi islomshunoslik fanlarining shakllanishida muhim manba sifatida xizmat ko‘rsatdi. Mazkur sohalar Qur’on oyatlari bilan bog‘liq holdagina mavjud bo’lgan. Allomalar vaqt o‘tishi va jamiyatdagi paydo bo‘layotgan yangi mavzu va muammolardan kelib chiqib, mazkur yo‘nalishni alohida shakllantirishga ehtiyoj sezidilar. Natijada “Qur’on ilmlari” deb nomlangan bir qancha ilmlar yuzaga kelishni boshladi.

Qur’oni karimni o‘rganishda ikki xil yondashuv bo‘lib, ular teologik va ilmiy yondashuvdir. Teologik yondashuvda Qur’oni karimga nisbatan sof ilohiy manba sifatida qaraladi. Unda asosan ibodatga bog‘liq masalalarga diqqat qaratiladi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, Qur’on karim oyatlarini tilovat qilish ibodat sanaladi.



Ilmiy yondashuvning mohiyati shundaki, Qur'onga o'sha mazkur davr ijtimoiy, madaniy hamda ma'naviy holati haqida batafsil ma'lumot taqdim etadigan tarixiy manba sifatida yondashiladi. Qur'oni karim oldingi zalqlar haqida ham atroflicha ma'lumotlarni o'z ichiga qamrab olgan.

Qur'on ilmlariga Qur'on lahjalari, qiroat turlari, sababun nuzul (oyatlarning nozil bo'lish sabablari), makkiy va madaniy oyatlar tahlili, nosix va mansux (oyat hukmini boshqa oyat bilan bekor qilinishi), munosabat(sura hamda oyatlarning bir biriga bog'liqligi), muhkam va mutashobih(bir yo'nalishda mazmun beruvchi va ikki yoki undan ko'p yo'nalishdagi mazmunlarni kasb etuvchi oyatlar), arab tili grammatikasi, balog'at mantiq kabi ilmlar kiradi.

Mazkur sohalarning asoslari Muhammad (s.a.v.) davrlarida yuzaga kelgan. Ushbu Qur'on ilmlari Qur'oni karim oyatlari ma'nnolarini tushunish hamda talqin etish uchun tadrijiy taraqqiy etgan. Qur'oni karim arab tilida nozil bo'lgani sababidan ayrim sahobalar uni anglash va talqin etishda umumiy mazmundagina tushunganlar, ammo tushunishda qiyinchilik sezgan o'rinlari ham mavjud bo'lgan.

Qur'on karim jamlanish davrida "rasm al-mus'haf" ilmi yuzaga kelgan. Ushbu ilm Qur'on karim ba'zi so'zlar yozilishi va qo'llanilishida bir-biridan farqli jihatlarini o'rganuvchi soha hisoblanadi. Mazkur soha arab tili yozuvi va harakatlar qo'yilishi, qoidalar taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlandi.

Shuningdek, oldindan mavjud bo'lgan oyatlarning nozil bo'lish sabablari, makkiy va madaniy oyatlar, nozix va mansux, om va xos, g'aribul-Qur'on ilmalri va tafsirga bo'lgan e'tibor kuchayib, mazkur sohalar mustaqil ilm sifatida bir-biridan ajrala boshladi. Ushbu sohalar hadislar tarkibida mustaqil boblar sifatida qayd etib borilgan. Bu jarayon ajam xalqlarning islomni qabul qilishlari hamda islomga doir bilimlarni egallashlari davomida shakllangan.

Olimlarning tafsir ilmiga doir asarlar yozishlari, tafsir ilmini mustaqil soha sifatida shakllanishiga asosiy omil bo'ldi. Qur'on ilmlari alohida o'rganilgan asarlar ilk islom davrida paydo bo'lgan. Ushbu asarlarni yozish II/VII asrdan boshlangan bo'lib, Yazid ibn Horun (vaf. 197/812), Shu'ba ibn Hajjoj (vaf. 160/776), Vaki' ibn Jarroh (vaf. 197/812), Muqotil ibn Sulaymon (vaf. 150/767) dastlabki tafsir asarlarini yozdilar. III/IX asrda "Majoz al-Qur'on" asari muallifi Abu Ubayda Muammar Musanno (vaf. 209/824) mazkur ilmni mustaqil ilm sifatida shakllanishiga asos solgan.

Nosix va mansux hamda qiroat ilmlarini alohida mustaqil ilm sifatida ajrailishiga Abu Ubayd ibn Salom (vaf. 224/839) mazkur sohalarga doir ikki asar yozishi bilan hissa qo'shgan. Ali ibn Madiniy (vaf. 234/848), Imom Buxoriyning ustozlaridan biri, oyatlarning nozil bo'lish sabablariga doir asar yaratib, bu sohani shakllanishida xizmat ko'rsatgan. Horis ibn Asad Muhosibiy (vaf. 243/857) Qur'onning ba'zi ilmlariga bag'ishlangan *فهم القرآن* "Fahm al-Qur'on" kitobini, Ibn Qutayba (vaf. 276/889) *مشكل القرآن* "Mushkul al-Qur'on" asarlarini yozib Qur'on ilmlari shakllanishiga turtki bo'lganlar.

IV/X asrda Muhammad ibn Xolaf Marzabon (vaf. 309/921) birinchi bo'lib *علوم القرآن* "Qur'on ilmlari" atamasini *الحواري في علوم القرآن* "Hoviy fi ulum al-Qur'on" asarida ishlatgan. Bu davrga qadar mazkur atama istifodaga kirmagan edi. Muhammad ibn Jarir Tabariy tafsir ilmiga bag'ishlangan *الجامع البيان في علوم القرآن* "Jome' al-bayon fi ulum al-Qur'on", Muhammad ibn Qosim Anboriy (vaf. 328/939) Qur'on ilmalriga doir asarlar yozganlar.



Shuningdek, Movaraunnahrdan Abu Mansur Moturidiy (vaf. 333/944) tafsirga bag'ishlangan *تأويلات أهل السنة* "Ta'vilot ahlis-sunna" (Ta'vilot al-Qur'on) asarini, Abu Lays Samarqandiy (vaf.375/985) *تفسير* "Tafsir" asarini yaratganlar. Abu Lays Samarqandiyning asarini hozirgi davrga qadar Qur'on ilmlari jamlangan asarlar sirasiga kiritish mumkin, chunki unda Qur'on ilmlariga alohida e'tibor qaratilgan. Asarda sababun-nuzul, makkiy va madaniy, muhakm va mutashobih, nosix va mansux, qiroatlar kabi ilmalrga keng e'tibor qaratilgan.

Qiroat ilmi yo'nalishi bo'yicha Ibn Mujohidning (vaf. 324/935) qiroat turlari tahliliga doir "Sab' fi al-qiroat" kitobida ilk marotaba yetti mutavotir qiroat turlarini ajratib, ularning ishonchliligi borasida ilmiy izlanish olib bordi.

Ibn Mujohid o'z zamonasida islom dunyosida iste'molda mavjud bo'lgan qiroat turlarini o'z asarida tahlil etib, aniqliklar kiritgan. Qiroat turlari sohasi olimlari uchun xozirga qadar Ibn Mujohidning qiroatlarning yetti mutavotirini ajratib, qolganlarini mashhur hamda shoz qiroatlarga bo'lib berishi qiroat ilmi olimlari uchun asos vazifani o'tab kelmoqda.

Abu Bakr Sijistoniyning (vaf. 330/944) Qur'oni karimdagi tushunish mushkul bo'lgan so'zlarga bag'ishlangan *غريب القرآن* "G'arib al-Qur'on" asari, ibn Ismoil ibn Ibrohimniing (vaf. 665/1266) *المرشد الوجيز فيما يتعلق بالقرآن العزيز* "Murshid al-vajiz ila ulum yata'llaq bi al-Kitob al-aziz", Izz ibn Abdussalomning (vaf. 660/1262) *مجاز القرآن* "Majoz al-Qur'on" kabi asarlar yozildi. Mazkur asarlar Qur'on ilmlarini qisman o'rgangan asar sanaladi. VIII/XIV asr olimi Ibn Qayyim (vaf. 751/1350) *أقسام القرآن* "Aqsam al-Qur'on" nomi ostida Qur'on karimdagi qasamlar haqida asar yozgan. Bu davrda Qur'on ilmlariga yaxlit holda e'tibor berilib, yanada mukammal asarlar yaratilish jarayoni avj olgandir.

Badriddin Zarkashiy (vaf. 794/1391) *البرهان في علوم القرآن* "Burhon fi ulum al-Qur'on" kitobida Qur'on ilmlariga doir 34 mavzuni keltirib, Qur'on ilmlariga oid fanlarni o'z asarida keltirmagan. Ushbu so'ngi asar Qur'on ilmlariga aloqador yaxlit holda, mavzularga ajratilgan tizimda o'rganilgan dastlabki asar hisoblanadi.

Asarda ta'rif hamda misollar tariqasida mavzular batafsil bayon etilgan bo'lib, nazariy jihatdan yondashilgan. Unda o'z zamonasiga qadar mazkur mavzuda yozilgan asarlardan istifoda etilgan bo'lib, asalardan olingan muxtasar fikrlar ham kitobdan o'z o'rnini egallagan. Shuningdek, muallif asarda o'z tahliliy fikrlari asosida mavzularni bayon etgan. Ushbu kitob Muhammad Abul-Fazl tomonidan tadqiq etilib nashrga tayyorlangan.

IX/XVI asrda Jaloliddin Bulqiniy (vaf. 824/1474) *مواقع العلوم من مواقع النجوم* "Mavaqi al-ulum min mavaqi al-nujum", Muhammad ibn Sulaymon Kofiyjiy (vaf. 879/1474) "Tasir fi qovaid al-tafsir" nomli asarlari ila Qur'on ilmlariga doir ba'zi fikrlari bilan ushbu sohasini yanada boyishiga hissa qo'shdilar.

Yuqorida zikr etilgan asarlarda mavzular chegaralangan bo'lib, ularning bayoni atroflicha yoritib berilmagan. Ma'lum ilmlar yoki bir ilmni batafsil o'rganishga qaratilgan hamda Qur'on karim ilmlarini qamrab olmagan hisoblanadi.

Mazkur davr olimlaridan Jaloliddin Suyutiy (vaf. 911/1505) *الإتقان في علوم القرآن* "Itqon fi ulum al-Qur'on" nomi ostida qomusiy asar yaratdi.

Jaloliddin Suyutiy o'z zamonasiga qadar Qur'on ilmlariga bag'ishlanib ta'lif etilgan asarlardan istifoda etgan tarzda, Qur'on ilmlarini bir asarda jamlab, 80 mavzuni zikr etib, ushbu mavzularning bayonini atroflicha taqdim etgan. Aynan Jaloliddin Suyutiy Qur'on ilmlarini yaxlit holda bir asarda jamlash masalasiga yakun yasadi.



*الإتقان في علوم القرآن* “Al-Itqon fi ulum al-Qur’on” asaridan so’ng alohida ajralib turadigan kitob yozilgani haqida ma’lumot mavjud emas. Ushbu asar, xozirda dunyo miqyosida, nafaqat arab mamlakatlarida, balki g’arblik sharqshunos hamda islomshunos olimlari tomonidan Qur’on ilmlari borasida asosiy qo’llanma vazifasini o’tab kelmoqda.

Jaloliddin Suyutiy Qur’on ilmlariga doir bir qancha asarlar ta’lif etgan bo’lib, ularning orasida ushbu sohaga oid shox asari *الإتقان في علوم القرآن* “Al-Itqon fi ulum al-Qur’on” hisoblangan. Mazkur kitob o’zidan oldin Qur’on ilmlariga doir yozilgan asarlarda keltirilgan ma’lumotlarni qamrab olib, Qur’on karim va unga doir ilmlarni nazariy hamda amaliy o’rganish uchun yagona qo’llanma sifatida hizmat ko’rsatadi.

Jaloliddin Suyutiy Qur’on karimga oid ilmlarni bayon etib berishda o’ziga xos uslubdan foydalanib, taqdim etgan mavzularini Qur’on karimdan misollar yordamida boyitib tahlil etgan. Jaloliddin Suyutiy Qur’on karimni yod olganida 8 yoshga hali to’lmagan edi<sup>1</sup>. Jaloliddin Suyutiy ta’lif etgan birinchi asar ham Qur’onga doir bo’lib *شرح الإستعانة و البسملة* “Sharh al-istioza va basmala” bo’lgan. Ushbu asarni imomni ustoz Shayx Bulqiniy o’qib chiqib taajjublanib, kitobga taqriz yozib bergan<sup>2</sup>.

Qur’on ilmlariga doir butun mavzularni o’z ichiga qamrab olgan bir mustaqil asar topa olmagan yuzidan bu kabi asarni yozishga Jaloliddin Suyutiy azm qaror qilgan. Jaloliddin Suyutiy<sup>3</sup> o’z ustozlari Kofijiydan tafsir ilmlariga doir muxtasar asarini va Abdurrohman ibn Umar Bulqiniyning *مواقع العلوم من مواقع النجوم* “Mavaqi al-ulum min mavaqi al-nujum” asarini tahlil etib bular orasidan muxtasar yoritilgan deb qaror qilgan mavzularni keng bayon etib hamda yangi mavzular kiritib birinchi “Al-taxbir fi ilm al-tafsir” nomli kitobni ta’lif etgan (872/1467-68).

Keyinchalik Badriddin Zarkashiyning ushbu mavzuga aloqador ilk mustaqil asari sanalgan *البرهان في علوم القرآن* “Al-burhon fi ulum al-Qur’on” kitobini o’rganib, tahlil qilgan hamda Qur’on ilmlariga doir izlanishlarni ushbu asarni o’rnak sifatida qo’llanishni davom ettirgan holda Suyutiy *البرهان في علوم القرآن* “Al-burhon fi ulum al-Qur’on” asaridan ko’ra tizimlashtirilgan hamda mundarijaga ega bo’lgan *الإتقان في علوم القرآن* “Al-Itqon fi ulum al-Qur’on” asarini ta’lif etishga kirishgani haqida *مجمع البحرين و المطلع البدرين* “Majma al-bahrayn va matla al-badrayn” asari muqaddimasida ma’lumot berib o’tgandir<sup>4</sup>.

Ta’lifi mobaynida mazkur asar Ibn Jarir Tabariy, Ibn Abu Hotim, Ibn Marduya, Ibn Hayyan, Abu Ubayd Qosim ibn Sallom, Ibn Abu Dovud, Navaviy, Ajurriy, Olamuddin Sahoviy, Ibn Jazariy, Huzaliy, Nahhos, Abu Amrad-Doniy, Rag’ib Isfahoniy, Ibn Qutayba, Ibn Jinniy, Xattobiy, Rummaniy va Boqiloniy kabi olimlarning tafsir, hadis, fiqh, lug’at, qiroat, rasmixat, ahkom va tarixga doir kitoblaridan foydalanilgan xolatda bir-biriga yaqin bo’lgan mavzular 80ta mavzuni (navni)o’zichiga olgan holda tuzilgandir.

Mavzular tuzilish jihatidan, avval ayni mavzuga doir yozilgan asarlar hamda ularning mualliflari zikr etilib, bu borada eng mashhur asar tegishli bo’lgan olimning ismi alohida ta’kidlanib kelgandir. Ayni mavzuga aloqador masalalar Qur’on oyatlari hamda hadislar

<sup>1</sup>Xofiz Jaloliddin Abdurrohman. Suyutiy Husnul muhozara fi tarixi Misro va al-Qohira. – Qohira: Al-Halabiy, 1968. –J. I. – B. 336.

<sup>2</sup>Jaloliddin Suyutiy. Al-tahaddusu bi ni’matillahi taqriyul istinadi fi taysiril ijthadi at-ta’riyfu bi adabi at-ta’liyfi. – Qohira: Maktabatul va’iy islamiy, 2019. – B. 138.

<sup>3</sup>[www.islamansiklopedisi.org.tr](http://www.islamansiklopedisi.org.tr). 31.03.2022.

<sup>4</sup>Jaloliddin Suyutiy. Al-Itqon fi ulum-al Qur’an. – Bayrut: Muassasatu rissalati nashiruna, 2008. – J. I. – B. 3-14.



yordamida, qolaversa buyuk olimlar asarlaridan dalillar hamda foydalanilgan kitoblardan keltirilgan matn parchalari sharh etish yordamida mavzu bayon etilgandir.

Keltirilgan hadislarning sanadlari ham taqdim etilib, roviylar to'g'risida batafsil ma'lumotga to'xtalib o'tilmagandir. Bir mavzuga doir farqli qarashlar naql qilingandan so'ngra muallif muayyan mavzuga oid o'z qarashini *قلت* " men aytdimki" ko'rinishida bayon etgan, taqdim etgan xabarlarini qaynoqlari va isnodini ham keltirgandir. Hadislarning sanadlari keltirilib, matnning ishonchli darajasiga doir muhaddislar qarashlarini tahlil etish asarni o'rganuvchisiga qoldirilgandir<sup>5</sup>.

"Al-Itqon fi ulum al-Qur'on" asarida mavzularning hajmi bir -biridan farqli bo'lib, ba'zilarining bayoni sahifalarcha uzagan bo'lsa, bir yo ikki sahifa uzagan mavzular ham asardan o'z o'rnini egallagan. Asarda Qur'onning nozil bo'lish sabablarining o'ziga 20ta mavzu ajratilib, ularning har biri batafsil bayon etib berilgandir. Qur'onning nozil bo'lish sabablariga doir quyidagi mavzular asrdan o'z o'rnini egallagandir: Makkiy va Madaniy, Safarda va muqim holatda nozil bo'lgan oyatlar, kunduzi va kechki, yozgi hamda qishki, uyg'oq va uyquda nozil bo'lgan, yerda va osmonda, dastlab nozil bo'lgan oyatlar, oxirgi nozil bo'lgan oyatlar atroflicha yoritilgandir.

Nozil bo'lish sabablari, ba'zi sahobalarning tillaridan boshqa tilde nozil bo'lgan jumlar, nozil bo'lishi takrorlangan oyatlar, hukmi nozil bo'lishidan kechikkan hamda nozil bo'lishi hukmidan kechikkan oyatlar, yaxlit xolda emas bo'linib nozil bo'lishning ma'rifati haqida, Qur'onda avval ba'zi anbiyolarga nozil qilingan va Rosululloh (s.a.v.)dan boshqa hechqaysi payg'ambarga nozil qilinmagan oyatlar taxlili, nozil bo'lish kayfiyati borasida qarashlar, sura ismlarining hikmati haqida, Qur'onning jamlanish va tartiblanishi haqida, sura, kalima va harflarning adadi haqidagi ma'lumotlar asarning avvalida muallif tomonidan batafsil ochib berilgan.

Keyingi bo'limlarda Qur'oni karim hofizlari va roviylari haqida, oliy hamda nozil sanad o'rtasidagi farqlar, mutavotir qiroat turi, mashhur qiroat, ohod qiroat, shozqiroat, mavzu qiroat, mudarraj qiroat, vaqf va ibtido (boshlash). Asarda keying bo'limlarda tajvid ilmiga doir bir qator ilmlar bayoni o'z yerini egallagan. 30chi bo'limda imola qoidasi haqida, keying bo'limda esa sukunli nun va tanvinga doir asosiy qoidalar yoritib berilgan: idg'om, izhor, ixfo hamda iqlob. Keying bo'limda mad qoidasi va qasrga doir masalalar bayoni taqdim etilgan.

Qur'on karim yod olish kayfiyati qanday bo'lishi haqida yo'riqimlar 34- bo'limda batafsil keltirilgan. Tilovat odobi, Qur'oni karimning g'aribi, Asarda, Qur'onda Hijoz tilidan boshqa tilda uchraydigan kalimalar tahlili, va Arablarning tilidan boshqa tilda kelgan kalimalar tahlili mavjud.

Qur'oni karim ismlari, sura nomalri, Qur'onning to'planish tarixi, tartibi, sura, oyat, kalima va harf adadlari, isnod darajalari, qiroatlar, tajvid ilmiga doir mas'alalar, tilovat odobi, tafsir metodologiyasi, mufassirlarning tabaqalari hamda suralarga doir tafsir rivoyatlari batafsil muhokama qilingandir. Mavzular orasida "tanbeh, fasl, far', taznib, foyda, mas'ala" kabi sarlavhalar ostida turli ma'lumotlar berilgandir.

Mazkur asarni talif etishdan oldin imom Jaloliddin Suyutiy Qur'on ilmlari sohasiga doir bir necha kitoblarni ko'zdan kechirib hamda ularni tahlil etib, so'ngra shu davrgacha izlanib

<sup>5</sup>[www.islamansiklopedisi.org.tr](http://www.islamansiklopedisi.org.tr) 16.04.2022.



o'rgangan ilmlarini xulosasi sifatida "Itqon fi ulum-al Qur'an" asarini yozishga azm qaror qilgan.

O'z kitobining muqaddimasida Jaloliddin Suyutiy Jaloliddin Bulqiniyng *مواقع العلوم من مواقع النجوم* "Mavaqi al-ulum fi mavaqi al-nujum" kitobini ko'rib, Suyutiy oldin tahlil etgan kitoblarida uchratmagan jihatlarni topganidan bag'oyatda mamnun bo'lgani haqida yozadi<sup>6</sup>. Bulqiniyning asari Jaloliddin Suyutiy nazdida latif yozilgan kitob va zarif tanlangan mavzularni qamrab olgan, o'ziga xos tartib, mundarija hamda taqririga ega hisoblangan.

Bulqiniy o'z xutbasida Bani Abbos qabilasi xalifalari bilan Imom Shofeiyni muloqotda bo'lgani haqida bilib qolib, Shofeiydandan ushbu qabila orasida Qur'on ilmlariga doir ba'zi boshqa sohalarni ham zikr etilganini kashf etib, mazkur sohalarni maqsadga muvofiq hamda foydadan xoli bo'lmasligi niyyatida o'z kitobiga kiritganini aytib o'tadi<sup>7</sup>. Jaloliddin Suyutiy esa, Bulqiniydandan andoza olgan holda, hamda yanada mavzulari tizimlashtirilgan, keng yoritilgan va takomillashtirilgan kitob yozishga kirishgan.

### References:

1. Xofiz Jaloliddin Abdurrohman. Suyutiy Husnul muhozara fi tarixi Misro va al-Qohira. – Qohira: Al-Halabiy, 1968.
2. Jaloliddin Suyutiy. Al-tahaddusu bi ni'matillahi taqriyrul istinadi fi taysiril ijthadi at-ta'riyfu bi adabi at-ta'liyfi. – Qohira: Maktabatul va'iy islamiy, 2019.
3. [www.islamansiklopedisi.org.tr](http://www.islamansiklopedisi.org.tr). 31.03.2022.
4. Jaloliddin Suyutiy. Al-Itqon fi ulum-al Qur'an. – Bayrut: Muassasatu rissalati nashiruna, 2008.

<sup>6</sup>Jaloliddin Suyutiy. Al-Itqon fi ulum-al Qur'an. – Bayrut: Muassasatu rissalati nashiruna, 2008. – J. I. – B. 16.

<sup>7</sup>O'sha manba B. 16.